

## JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZOLIKNING O'ZBEKISTON UCHUN AFZALLIK VA KAMCHILIKLARI

**Xolmirzayeva Shoxista Arziqul qizi**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

“Xalqaro huquq” fakulteti magistranti

E-mail: [@xolmirzayeva.shoxista.mail.ru](mailto:@xolmirzayeva.shoxista.mail.ru)

Telefon: 99890-443-84-40.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11397307>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi bilan bog'liq holda kutilayotgan natijalar va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan iqtisodiy muammolar tahlili bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Jahon savdo tashkiloti, a'zolik, iqtisodiy o'sish, proteksionizm, o'zini -o'zini himoya qilish.

## ADVANTAGES AND DISADVANTAGES OF MEMBERSHIP IN THE WORLD TRADE ORGANIZATION

**Abstract.** This article describes the analysis of the expected results and possible economic problems related to the membership of the Republic of Uzbekistan in the World Trade Organization.

**Key words:** World Trade Organization, membership, economic growth, protectionism, self-defense.

## ПРЕИМУЩЕСТВА И НЕДОСТАТКИ ЧЛЕНСТВА ВО ВСЕМИРНОЙ ТОРГОВОЙ ОРГАНИЗАЦИИ

**Аннотация.** В данной статье описан анализ ожидаемых результатов и возможных экономических проблем, связанных с членством Республики Узбекистан во Всемирной торговой организации.

**Ключевые слова:** Всемирная торговая организация, членство, экономический рост, протекционизм, самооборона.

Aytish joizki, bugungi global dunyoda barcha davlatlar bir- birlari bilan savdo aloqalari sabab uzviy bog'liq. Bu esa o'z navbatida mazkur munosabatlar asnosida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi samarali xalqaro mexanizmni talab etadi. Negaki, savdo aloqalari davomida davlatlar o'rtasida muayyan holatlar yuzasidan turli xil kelishmovchiliklar va nizolar yuzaga kelishi tabiiy albatta. Ushbu zarurat natijasi o'laroq Jahon savdo Tashkiloti xalqaro

doirada savdo munosabatlari sohasidagi munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi tashkilot sifatida yuzaga keldi.

Ma'lumki, Jahon savdo tashkilotining asosiy vazifasi xalqaro savdoni leberallashtirish, savdo bitimlarining odilligini ta'minlash, davlatlarning iqtisodiy o'sishi va xalq faravonligini oshirishdir. Xususan, Jahon savdo tashkiloti a'zo davlatlarga xalqaro tijorat uchun cheksiz imkoniyatlar eshigi hisoblanib, o'z navbatida u a'zo davlatlar oldiga muayyan talablar qo'yadi. Mazkur talablardan eng asosiysi a'zo bo'lgan mamlakatlar ichki bozorini erkinlashtirishning qat'iy talabidir. O'z navbatida mazkur vazifani bajarish ham davlatlar uchun oson bo'lmasdan aksincha aksariyat hollarda milliy sanoatning tanazzuli bilan yakun topadi.

Bilamizki, mamlakatimiz iqtisodiyoti erkin bozor tamoyillariga asoslangan davlat qurish yo'lidan bormoqda. Bunda esa asosiy vazifa iqtisodiyotni leberallashtirish erkin raqobatni qaror toptirishdir. Ammo, aytish joizki, yillar davomida iqtisodiyotning ba'zi tarmoqlarida xususan transport, avtomobil sanoatida hali hanuzgacha monopoliya saqlanib kelinayotganligi oddiy xalqning noroziligiga sabab bo'lib kelmoqda. Ayniqsa, hozirgi globallashtirish asrida bu kabi noroziliklarni vaqtida oldi olinmasa bu o'zining salbiy natijasini ko'rsatishi muqarrar. Shu va boshqa omillarni inobatga olgan holda mamlakatimizning Jahon savdo tashkilotiga qo'shilishi monopoliyaga barham berish barobarida bir qator o'zining ijobiy jihatlari namoyon etadi. Mazkur manfaatlarining eng dastlabkisi bu iqtisodiy manfaat bo'lib, davlatlararo munosabatlarda hech bir to'siqlarsiz tovar ayrboshlashga erishiladi. Ikkinchidan, xalqimizning turmush sharoitlarini yaxshilashga imkon beriladi va ularga sifatli mahsulot este'mol qilish imkoni beriladi. Uchinchidan, mamlakat hududiga olib kirilgan chet el tovarlari hisobiga milliy mahsulotlar tannarxi pasayishiga va o'z o'rnida arzon mahsulot istemol qilishga erishiladi. To'rtinchidan, chet el investetsiyalarining kirib kelishi ortadi va investetsiya jozibadorligiga erishiladi. Beshinchidan, eng asosiysi ishlab chiqarishning ortishi hisobiga yangi ish o'rinlari yaratiladi va aholining bandligi ta'minlanadi. Xususan, ayni sharoitda mamlakatimiz hududida ish bilan band bo'lmagan minglab yurtdoshlarimiz xorijiy davlatlarda mehnat migranti sifatida faoliyat yuritmoqda. Va agar ularning mehnat kapitali mamlakat hududidagi ishlab chiqarishga sarflanishiga erishilsa bu iqtisodiyotimiz uchun ulkan o'sish bo'ladi.

Shu o'rinda aytish kerakki, Jahon savdo tashkilotiga a'zolik mamlakatimiz iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir qilish barobarida muayyan cheklovlarni ham joriy etadi. Xususan, mazkur to'siqlar sirasiga bojxona ta'riflarini pasaytirish bilan bog'liq holda davlat byudjetini zarar ko'rishi shuningdek, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlarini raqobat qila olmaslik va ularning sinish xavfi va eng asosiysi bozor erkinligiga davlat aralashuvini butunlay tugatish bilan bog'liq ijrosi va yakuni bosiq va vazmin siyosat yuritish talab etadigan murakkab yo'ldir. O'zbekiston esa

ayni shu yo'lni tanladi va yangi O'zbekistonning Jahon savdo tashkiloti a'ziligiga qabul qilinishi mamlakat oldida turgan eng asosiy vazifa sifatida belgilab berildi. Xususan, "O'zbekiston- 2030" strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentning farmonida ham mamlakatimizning jahon savdo tashkilotiga to'laqonli a'zo bo'lishi mamlakatimiz oldida turgan ustuvor vazifa sifatida belgilab berilgan. Mazkur farmonga muvofiq, milliy qonunchilikni va huquqni qo'llash amaliyotini jahon savdo tashkilotining qoida, mayor va bitimlariga moslashtirish, yiliga kamida 10 ta xorijiy davlat bilan bozorga kirish muzokaralarini yakunlash, jahon savdo tashkilotiga a'zo davlatlar bilan bozorga kirish bo'yicha muzokaralarni tizimli olib borish va a'zo bo'lish jarayonini samarali yakuniga yetkazish vazifalari qo'yilgan.

Xususan, Jahon savdo tashkilotiga a'zo davlatlar Xitoy , qo'shni Qozog'iston va Qirg'iziston davlatlarining tashkilotga a'zo bo'lishi bilan bo'g'liq holda ularning iqtisodiyotida ro'y bergan o'zgarishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tashkilotga a'zolik davlatlar uchun agar ular tashkilot norma va kelishuvlaridan to'g'ri foydalana olishsa faqatgina manfaatli bo'lishi shubhasiz. Misol tariqasida birgina Xitoy xalq Respublikasini oladigan bo'lsak, u 2001 yilda tashkilot a'ziligiga qabul qilinganidan beri uning mahsulotlari butun jahon bozorini egalladi va shu orqali u iqtisodiyoti ulkan darajada yuksaltirishga erishdi. Shu o'rinda aytish kerakki, agar mamlakatimiz ham Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish bo'g'liq muzokaralardan unumli foydalanib, o'ziga maqbul va manfaatli shartlar asosida tashkilot a'ziligiga qabul qilinishga erishsa iqtisodiyoti va kelgusi faoliyati uchun manfaatli bo'ladi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, O'zbekistonning jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi mamlakatimiz iqtisodiyotida keskin o'zgarishlarni amalga oshirishni hamda mazkur o'zgarishlar zahirida yuzaga keladigan o'ta murakkab iqtisodiy vazifalarning oqilona yechimini topishni talab etadi. Shunga qaramay, tashkilotga a'zo bo'lish iqtisodiyotda monopolist boshqaruvga chek qo'yib, erkin raqobatga yo'l ochadi. Bunday dadil qadam esa yurtimiz kelajagi uchun istiqbolli bo'lishi shubhasiz, albatta.

## REFERENCES

1. Ponkratova L.A., Chjao Xing. Xitoyning tashqi savdosi: tarkibiy o'zgarishlar dinamikasi va baholash xususiyatlari. Milliy manfaatlar: ustuvor yo'nalishlar, 2001 yil.2(95) , bet. 44-53;
2. O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. [https:// lex.uz/docs/-6600413](https://lex.uz/docs/-6600413).